

## **O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN INTERFAOL DARSLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Rustamova Manzura Mirkamalovna,*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası mudiri, PhD, dotsent v.b.*

*Mazkur maqolada o'yin texnologiyalaridan foydalangan interfaol darslarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada interfaol texnologiyalardan foydalanish, bolalar ta'limining motivatsiyasi va individuallashuvini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini, nutq faolligini rivojlantirish, jamoada ishlashda axloqiy me'yor va qoidalarni qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi masalalariga to'xtalib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: o'yin texnologiyalari, interfaol darslar, jamoa, axloqiy me'yor, qoida, qobiliyat, zamonaviy ta'lim, o'quv jarayoni, maktabgacha yosh davri, kognitiv qiziqish, dunyoqarash, qobiliyat, ijodiy faoliyat, motivatsiya, individuallashuv, qulay hissiy muhit, samarali usul.*

## **ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ УРОКОВ С ИГРОВЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ**

*Рустамова Манзура Миркамаловна,*

*Заведующий кафедрой «Методики дошкольного и начального образования» Ташкентского международного химического университета, кандидат химических наук, доцент*

*Аннотации: В статье описаны особенности интерактивных уроков с использованием игровых технологий с научно-теоретической точки зрения. В статье также рассматривается использование интерактивных технологий, повышение мотивации и индивидуализации обучения детей, развитие их творческих способностей, речевой активности, умение принимать этические нормы и правила в коллективной работе.*

*Ключевые слова: игровые технологии, интерактивные уроки, сообщество, этика, правила, способности, современное образование, учебный процесс, дошкольный возраст, познавательный интерес, мировоззрение, способности, творческая деятельность, мотивация, индивидуализация, комфортная эмоциональная среда, эффективный метод*

## **FEATURES OF INTERACTIVE LESSONS WITH GAME TECHNOLOGIES**

*Rustamova Manzura Mirkamalovna,*

*Head of the «Methodology of Preschool and Elementary Education» Department of Tashkent International University of Chemistry, PhD, associate professor*

*Annotations: The article describes the features of interactive lessons using gaming technologies from a scientific and theoretical point of view. The article also discusses the use of interactive technologies, increasing the motivation and individualization of teaching children, the development of their creative abilities, speech activity, the ability to accept ethical norms and rules in teamwork*

*Key words: gaming technologies, interactive lessons, community, ethics, rules, abilities, modern education, educational process, preschool age, cognitive interest, worldview, abilities, creative activity, motivation, individualization, comfortable emotional environment, effective method*

*Zamonaviy ta'limning o'quv jarayonida interfaol texnologiyalardan faol qo'llanila boshlandi. Interfaol texnologiyalardan foydalanish, bolalar ta'limining motivatsiyasi va individuallashuvini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va qulay hissiy muhitni yaratishning samarali usullaridan biridir. Ma'lumki, maktabgacha yosh davri - bu bolalarning atrofida dunyoning xilma-xilligi haqidagi g'oyalarini kengaytirish va boyitish, bolalarning idrokini shakllantirish, nutqning barcha aqliy jarayonlarini rivojlantirish uchun samarali davr. Shuning uchun bolalar bog'chasining vazifasi maktabgacha yoshdagi bolaning atrofida dunyo haqidagi bilimlarini boyitish, undagi o'zaro ta'sirni, o'zgarishlarni, bir-biriga bo'lish hodisalarini ko'rishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga, ularni dalillar bilan tushuntirib berishga*

o'rgatishdir. Interfaol usullardan foydalanish bolalarda mavjud bo'lgan turli bilim sohalari va kognitiv qiziqishni uyg'otadi. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda nodavlat va davlatga qarashli bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'llaydigan Davlat talablariga muvofiq jismonan sog'lom va yetuk, aqlan ziyrak, sog'lom fikrlaydigan maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Maktabgacha ta'limning vazifalari:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik xislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish manbalarini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruxiy sog'ligini ta'minlash.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida – oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish xuquqiga ega» deyilgan. Shuningdek, voyaga yetmaganlar – davlat ximoyasidadir – deb uqtiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaka xususiyatlarini hisobga olgan xolda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi. Respublikamizda 3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan xolda 3 davrga (3-4yosh) kichik maktabgacha davri (4-5yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr(o'rta bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti – harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab xarakterlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mexnat malakalari hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axolq va estetik didning dastlabgi kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Bog'cha yoshdagi bolalar xayotida va ularning psixik jixatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik xodisa desa bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qiziquvchan, kattalar va tengdoshlariga savol beradigan, sabab-oqibat munosabatlariga qiziqadigan, tabiat hodisalari va odamlarning harakatlariga mustaqil ravishda tushuntirishlar berishga harakat qiladigan, kuzatish va tajriba qilishga moyil bo'lgan yosh davridir. Aynan shu davrda qiziqarli interfaol metodlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari g'oyasi 1990-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan. Ushbu hodisa birinchi veb-brauzerning paydo bo'lishi va internetning jadal rivojlanishining boshlanishi bilan bog'liq, shuning uchun ba'zi ekspertlar interaktiv texnologiyani kompyuter tarmoqlari va internet resurslaridan foydalangan holda o'rganish sifatida izohlaydilar. Interfaol ta'lim - bu kognitiv faoliyatni tashkil etishning o'ziga xos shakli bo'lib, o'quv jarayoni deyarli barcha o'quvchilar bilish jarayonida ishtirok etadigan, o'zlari bilgan va o'ylagan narsalarni tushunish va mulohaza yurita oladigan tarzda davom etadi. Interfaol ta'lim, birinchi navbatda, bolalarning o'quv muhiti, ta'lim muhiti bilan o'zaro munosabatiga asoslangan

ta'lim bo'lib, u o'zlashtirilgan tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi, bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro ta'sir qiladi.

Bolalarning kognitiv faoliyatini interfaol ta'lim shaklida tashkil etish quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish (tahlil, sintez va boshqalar);
- yoshga mos keladigan intellektual va shaxsiy vazifalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarning nutq faolligini rivojlantirish;
- muloqot ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo o'zaro munosabatlariga motivatsion tayyorlikni shakllantirish;
- jamoada ishlashda axloqiy me'yor va qoidalarni qabul qilish qobiliyatini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun xayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib mustaqil xarakter qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va xodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatga bo'lishiga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining xaddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan xam amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani, tramvayni o'zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Biroq tabiiyki bola o'zidagi bunday extiyojlarning birontasini xam xaqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama - qarshilik qanday yo'l bilan xal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali ya'ni bolaning o'yin faoliyati orqaligina xal qilinishi mumkin. Buni shu bilan izoxlab berish mumkinki, birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab(motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas balki shu o'yin jarayonidagi turli xarakatlarning mazmuni bilan bog'liqdir. Ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib xoxlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jixatdan garmonik ravishda rivojlantirish uchun birdan bir vositadir.

O'yin bolalar xayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mexnat xam, turli narsalar xaqida tafakkur qilish, xom xayol, dam olish va xushchaqchqlik manbalari xam mujjasamlangandir, ya'ni mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni xam ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa xodisalarini bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari xam shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila borishga bog'liqdir.

Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib rivojlanadigan narsadir. Shuni xam aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga guyo bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular xam o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni analogik tarzda) har xil xayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli uyin faoliyatlarida fakat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni xam aks ettiradilar.

Interfaol ta'limning maqsadlari:

1. Bolalarni shaxslararo o‘zaro ta’sir doirasiga kiritish orqali ijtimoiy va shaxsiy tajribani rivojlantirish va boyitish. 2. Bolalarning yetishmayotgan bilimlarini turli manbalardan ixtiyoriy va mustaqil ravishda egallashi, undan kognitiv va amaliy muammolarni hal qilishda foydalanishni o‘rganishi, tadqiqot ko‘nikmalarini, tizimli fikrlashni rivojlantirishi uchun sharoit yaratish. 3. Bolalar o‘z muvaffaqiyatini, intellektual kompetensiyasini his qiladigan qulay ta’lim sharoitlarini yaratish, bu butun o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish demakdir.

Interfaol texnologiyada o‘qituvchining eng muhim vazifasi - axborot almashish jarayoniga rahbarlik qilish va unda yordam berish: nuqtai nazarlarning xilma-xilligini aniqlash; ishtirokchilarning shaxsiy tajribasiga murojaat qilish; ishtirokchilarni faol tutish; nazariya va amaliyotning uyg‘unligi; ishtirokchilar tajribasini o‘zaro boyitish; idrok etish, tushunishni osonlashtirish; ijodkorlikni rag‘batlantirish.

Ta’limning interaktiv shakllari.

1. Individual shakl - tarbiyachining bir bola bilan o‘zaro munosabati, o‘ziga yuklangan vazifani mustaqil ravishda hal qiladi. 2. Juftlashgan shakl topshiriqlarni juftlikda yechishda qo‘llaniladi, bolalar nafaqat o‘rganadilar, balki o‘zaro ta’lim va o‘zaro nazoratni ham amalga oshiradilar. 3. Guruh shakli bolalar kichik guruhlariga bo‘linib, masalani birgalikda yechganda qo‘llaniladi. 4. Frontal shakl tarbiyachining barcha bolalar bilan ishlashini, topshiriqni barcha ishtirokchilar tomonidan bir vaqtning o‘zida, bir xil sur’atda va umumiy vazifalar bilan bajarishini nazarda tutadi. 5. Kollektiv shakl bolalarga yaxlit jamoa sifatida qaralganda, lekin o‘zlarining yetakchilari va o‘zaro ta’sirning maxsus shakllari bilan foydalaniladi. 6. Bolalarning o‘zgaruvchan tarkibi bilan o‘zaro ta’sir qilish shakli jamoaviy yoki frontal ishlarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladi, lekin ishtirokchilarning doimiy o‘zgarishi bilan, o‘rganilayotgan muammoni sezilarli darajada kengaytiradi va shaxslarning bilimlari tufayli intellektual boyitishga yordam beradi.

O‘rgatuvchi o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minot barcha funksiyalarga asoslangan, nazariy materiallar namoyon qilingan bo‘lishi, dastlabki olingan tushunchalarini izoxlash, o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish, qog‘ozdagi ma’lumotlar yordamisiz teskari aloqaga va shu kabilarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Albatta, yuqoridagi talablarga javob beradigan o‘rgatuvchi o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minot yaratish katta kuch talab qiladi. Elektron o‘quv–uslubiy ta’minot yoki boshqa kompyuter o‘quv darsliklarini kompyuter bilan ishlashga doir psixologik aspektlarsiz yaratish mumkin emas.

Birinchiidan, tarbiyalanuvchi yoshlarni tushinish doirasini psixologik nuqtai nazaridan hisobga olish kerak.

Ikkinchiidan, tarbiyachi ham o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minot bilan, ham kompyuter bilan ish olib borishi kerak bo‘ladi.

Maktagacha ta’lim jarayonini tashkil etishda foydalanuvchining o‘quv materialini takrorlashda uni yodda saqlashi, o‘z bilimini fikrlashi hisobga olinishi kerak. O‘rgatuvchi o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minotning belgilangan o‘quv materialini o‘zlashtirishning samarali imkoniyatlarini, ma’lumotlarni yodda saqlash va fikr yuritishni yanada oshirishga yordam berishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. O‘rgatuvchi o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minot yordamida o‘quv faoliyatining bu elementini tashkil qilish o‘zining ko‘pgina farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Sababi ming marotaba eshitgandan, bir marta ko‘rgan avzal maqoliga amal qilishni isboti bo‘ladi.

Birinchiidan, o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minot yordamida rejadagi o‘quv mashg‘uloti topshirig‘ini bajarishda ma’lumotning ekranda kerakli tartibda joylashishi, asosiy elementlarning rang bilan belgilanishi, foydalanuvchi uchun «qulay instrumentlar»dan foydalanishni va shu kabilarni keltirishimiz mumkin.

Ikkinchiidan, bolalar ba’zi bir qo‘lda bajariladigan amallarini turli xil xizmatchi funksiyalar yordamida bajaradi. Natijada topshiriq bajarilishi tezlashadi.

Shu yo‘sinda maktabgacha ta’lim tizimidagi bolalarni maktabga ya’ni o‘quv jarayoniga ortiqcha qiyinchiliklarsiz olib borilishi tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim soxasidagi eng dolzarb masalalardan biri bu – maktabgacha ta’lim jarayoni uchun o‘rgatuvchi o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy qo‘llanmalar, multimediali kompyuterli



o'rgatuvchi dasturlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish va ularni targ'ibot qilish hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Артемева О. А., Макеева М. Н. Система учебно-ролевых игр профессиональной направленности. — Тамбов: Тамб. гос. техн. ун-т, 2007. — 208 с.
2. Василева Т. В. Игровые и творческие задания как способ формирования профессиональных компетенций [Электронный ресурс] // Бесплатная интернет-библиотека. — Режим доступа: <http://pdf.knigix.ru/21/filologiya/183946-1-igri-tvorcheskie-zadaniya-kak-sposob-formirovaniya-professionalnih-kompetenciylektor-prepodavatel-kafed.php>.
3. Войтов А. Г. История и философия науки: учеб. пособие для аспирантов. — М.: Дашков и К, 2004. — 692 с.
4. Дзюба Е. В., Массалова А. Э. Психолого-педагогические, социокультурные и методические основы преподавания русского языка как неродного / иностранного // Филологический класс. — 2017. — № 49. — С. 41-47.
5. Ермолаева М. Г. Игра в образовательном процессе: метод. пособие. — 2-е изд., доп. — СПб.: АП- ПО, 2005. — 112 с.
6. Кашлев С. С. Интерактивные методы обучения. — М.: ТетраСистемс, 2013. — 224 с.